

Yalpi hududiy mahsulotni hisoblash bo'yicha uslubiy nizom

Yalpi hududiy mahsulotni hisoblash bo'yicha mazkur uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) “Milliy hisoblar tizimi – 2008” (keyingi o'rinlarda – MHT–2008) konsepsiyalari hamda Davlat statistika qo'mitasining 2021- yil 23- noyabrdagi 45- sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish usulida hisoblash bo'yicha uslubiy nizom”ga, shuningdek, Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) talablari asoslangan va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri yalpi hududiy mahsulotini (keyingi o'rinlarda – YAHM) ishlab chiqarish usulida hisoblash tartibini belgilab beradi.

Uslubiy nizom statistika organlari tomonidan YAHMni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida hisoblashda foydalanish uchun mo'ljallangan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar va ularning ta'riflaridan foydalaniladi hamda u GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi:

milliy hisoblar tizimi (MHT) mamlakatning iqtisodiy faoliyati natijalarini ifodalovchi hisoblar va jadvallarning muayyan to'plami shaklida tuzilgan, o'zaro bog'liq statistika ko'rsatkichlari tizimini o'zida aks ettiradi;

institutsional birlik o'z nomidan aktivlarga ega bo'la oladigan, majburiyatlar oladigan, boshqa birliklar bilan iqtisodiy faoliyat va operatsiyalarni amalga oshira oladigan xo'jalik yurituvchi subyektdir;

yalpi ichki mahsulot (YAIM) iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi va ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati orqali o'lchanadigan MHTning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir;

yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – hududning rivojlanishini umumlashtiruvchi ko'rsatkich. YAHM iqtisodiy mohiyatiga ko'ra YAIMga teng ko'rsatkich hisoblanadi, ya'ni u ushbu hududning rezidentlari bo'lgan iqtisodiy birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini ifodalaydi;

aholi jon boshiga YAIM (YAHM) muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM (YAHM) hajmini mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi;

ishlab chiqarish hisobot davrida rezident-birliklarning ishlab chiqarish faoliyati natijasi bo'lib, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning umumiy qiymatini o'zida aks ettiradi;

oraliq iste'mol ishlab chiqarish jarayonida xarajatlar sifatida iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymatini o'zida aks ettiradi, asosiy kapital iste'moli sifatida aks ettiriladigan asosiy fondlar iste'moli bunga kiritilmaydi;

yalpi qo'shilgan qiymat ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to'raligicha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi;

mahsulotlarga soliqlar – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar va boshqalar kiradi;

mahsulotlarga subsidiyalar – davlat budjetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to'lanadigan mablag'lar (subsidiyalar);

mahsulotlarga sof soliqlar – mahsulotlarga subsidiyalarni chegirib tashlagan holda, tovarlar va xizmatlarni sotish narxlariga kiritiluvchi mahsulotlarga soliqlar;

sotib olish narxi – sotib oluvchi tomonidan belgilangan vaqtda va belgilangan joyga yetkazib berilgan tovar yoki xizmat birligi uchun to'lanadigan narx. U tovarni yetkazib berish bo'yicha savdo-vositachilik va transport xarajatlarini, shuningdek, sotib oluvchi tomonidan to'lanadigan mahsulotlarga soliqlarni o'z ichiga oladi, ammo mahsulotlarga subsidiyalarni va chegirib tashlanadigan qo'shilgan qiymat solig'ini (QQS) o'z ichiga olmaydi;

asosiy narx – ishlab chiqaruvchi tomonidan xaridordan tovar yoki xizmatning birligi uchun olinishi lozim bo'lgan, mahsulot ishlab chiqarilishi yoki sotilishi natijasida to'lanishi lozim bo'lgan har qanday soliqni ayirib, olinadigan har qanday subsidiyalarning qo'shilganiga teng bo'lgan narx. U ishlab chiqaruvchi tomonidan hisobvaraqa-fakturalarda alohida ko'rsatiladigan har qanday transport xarajatlarini o'z ichiga olmaydi;

YAHM fizik hajm indeksi (FHI) doimiy narxlarda, ya'ni o'tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri YAHMini (real YAHM), joriy narxlardagi o'tgan yilning mos davri YAHMga nisbati orqali hisoblanadi;

YAHM deflyator indeksi hudud iqtisodiyotida narxlarning o'rtacha o'zgarishini ifodalaydi va nominal YAHMning (joriy narxlardagi hisobot davri YAHM) real YAHMga nisbati orqali hisoblanadi.

2-bob. YAHMni hisoblash tamoyillari

2. YAHMni hisoblash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan respublika miqyosida O'zbekiston Respublikasining 14 ta ma'muriy-hududiy tuzilmasi (Qoraqalpog'iston

Respublikasi, 12 viloyatlar va Toshkent shahri) bo'yicha ishlab chiqarish usulida amalga oshiriladi (1-ilova).

3. YAHMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli MHTning ishlab chiqarish hisoblarini tuzish tamoyillariga asoslanadi va YAHMni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy narxlarda yalpi qo'shilgan qiymat va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali baholashni ko'zda tutadi.

4. YAHM va uning tarkibiy qismlarini hisoblashni uslubiy tamoyillari butun iqtisodiyot bo'yicha YAIMni hisoblash tamoyillari bilan bir xil. Lekin YAIMning ayrim elementlari hududlar kesimida shakllantirilmaydi yoki hududlar darajasida ma'lumotlarning yo'qligi va cheklanganligi, shuningdek, ularni hisobga olishni o'ziga xos xususiyatlari sababli hududlar bo'yicha taqsimlanmaydi. Shu sababdan, ular O'zbekiston Respublikasi bo'yicha taqsimlanmagan qism sifatida hisob-kitoblarga kiritiladi.

5. Barcha hududlar bo'yicha hisoblangan jami YAHM O'zbekiston Respublikasi YAIMdan quyidagilarning yalpi qo'shilgan qiymati miqdoriga farq qiladi:

- davlat muassasalari tomonidan jamiyatga ko'rsatiladigan jami nobozor jamoaviy xizmatlar (mudofaa, davlat boshqaruvi);
- hududlar darajasida ma'lumotlar mavjud bo'lmagan, respublika budjetidan moliyalashtiriladigan boshqa nobozor xizmatlar;
- faoliyati kamdan-kam hollarda alohida hududlar bilan chegaralanadigan moliyaviy vositachilarning (asosan banklarning) xizmatlari;
- temir yo'l, havo va quvur transporti xizmatlari;
- mahsulotlarga soliqlar (respublika budjetiga soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadi) va mahsulotlarga subsidiyalar (respublika budjetidan taqdim etiladi).

6. YAHM joriy narxlarda, shuningdek, fizik hajm indeksi va deflyator indeksini hisoblash maqsadida doimiy narxlarda baholanadi. Taqqoslash uchun baza yili sifatida o'tgan yilning mos davridan foydalaniladi.

7. YAHM Statistika dasturida ko'zda tutilgan muddatlarda, yillik va choraklik davriylikda shakllantiriladi.

8. YAHMni yillik baholash keng ko'lamdagi axborot bazasiga ega bo'lgan yillik statistika kuzatuvlari ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – IFUT-2)ning seksiyalari bo'yicha shakllantiriladi. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillik YAHM tarkibi sxemasi 2-ilovada keltirilgan.

9. YAHMni choraklik baholashlar hisobot davrida hududdagi joriy iqtisodiy vaziyatni dastlabki baholash va tavsiflash maqsadida ishlab chiqiladi, ular yillik baholashlar davomida batafsil ma'lumotlar asosida aniqlashtiriladigan yil davomidagi ko'rsatkichlar hisoblanadi. Shu bilan birga, YAHMni choraklik baholashlar yillik baholashdan farqli yanada yuqori darajada jamlash asosida shakllantiriladi. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha choraklik YAHM tarkibi sxemasi 3-ilovada keltirilgan.

3-bob. Ishlab chiqarish, oraliq iste'mol va yalpi qo'shilgan qiymatni joriy narxlarda shakllantirish

10. Ishlab chiqarish bozor narxlarida sotiladigan tovarlar va xizmatlar, o'z iste'moli uchun ishlab chiqarilgan tovarlar (yakuniy iste'mol va yalpi jamg'arish uchun), davlat budjeti va uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan nobozor xizmatlarni ishlab chiqarishga sarflangan joriy xarajatlarning umumiy qiymati bilan o'lchanadi.

11. Ishlab chiqarish ishlab chiqarish jarayonida tovarlar va xizmatlar yaratilgan vaqtda qayd etiladi va baholanadi. Shu bilan birga, baholash usullaridagi farqlarni inobatga olib, umumiy ishlab chiqarishning quyidagi turlari farqlanadi: bozor uchun ishlab chiqarish, nobozor ishlab chiqarish va o'zining yakuniy iste'moli uchun ishlab chiqarish.

12. Bozor uchun ishlab chiqarish asosiy narxlarda baholanadi va quyidagilarning qiymatini o'z ichiga oladi:

iqtisodiy ahamiyatga ega narxlarda sotiladigan tovarlar va xizmatlar;

boshqa tovarlar, xizmatlar yoki aktivlarga barter usulida ayirboshlanadigan tovarlar va xizmatlar;

ish beruvchilar tomonidan o'z xodimlariga natura shaklida mehnatga haq to'lash sifatida beriladigan tovarlar va xizmatlar;

korxonaning biror bo'linmasi tomonidan ishlab chiqarilgan va ushbu korxonaning boshqa bo'linmasiga joriy davrda yoki kelgusida ishlab chiqarishda foydalanish uchun berilgan tovarlar yoki xizmatlar (masalan, qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarilgan va iste'mol qilingan urug' va yem-xashak; konlarda ko'mir briketlarini ishlab chiqarishda ishlatilgan ko'mir; xo'jalik usulida qurilish uchun ishlatilgan materiallar; yordamchi xo'jaliklar tomonidan korxonaga tegishli bo'lgan oshxonalarga, bolalar muassasalariga, dam olish uylariga berilgan oziq-ovqat mahsulotlari va boshqalar);

ishlab chiqaruvchining moddiy aylanma vositalari zaxiralariga kelib tushuvchi va tijorat maqsadlarida foydalanishga mo'ljallangan tayyor mahsulot va tugallanmagan ishlab chiqarish.

13. Nobozor ishlab chiqarish ishlab chiqarishga ketgan joriy xarajatlar bo'yicha baholanadi va davlat budjet muassasalari hamda nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan bepul yoki iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lmagan narxlarda taqdim etiladigan tovarlar va xizmatlar qiymatini o'z ichiga oladi.

Nobozor xizmatlarning qiymatlari xarajatlarning quyidagi bandlari yig'indisi orqali baholanadi:

oraliq iste'mol;

xodimlarning ish haqi (barcha ajratmalar bilan birga);

mahsulotlarga boshqa soliqlar (ishlab chiqarish uchun subsidiyalarni chiqarib tashlagan holda);

asosiy kapital iste'moli.

14. O'z yakuniy iste'moli uchun ishlab chiqarish quyidagilarning qiymatini o'z ichiga oladi:

uy xo'jaliklari tomonidan o'z iste'moli uchun ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi va boshqa mahsulotlar;

uy-joy egalari tomonidan o'z iste'moli uchun ishlab chiqarilgan yashash xizmatlari;

MHT tamoyillariga asosan o'z uyida yashash xizmatlari hajmi ishlab chiqarish chegarasiga kiritilib, uy xo'jaliklari iste'molining bir qismi hisoblanadi. MHT doirasida o'z uyida yashash xizmatlari hajmi foydalanuvchilarning xarajatlari usulida hisoblanadi.

haq to'lanadigan uy xizmatchilari xizmatlari;

korxonaning o'zida kelgusida ishlab chiqarishda foydalanish uchun qoladigan, o'z iste'moli uchun ishlab chiqarilgan asosiy fondlar (asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi).

15. Oraliq iste'molga tovarlar va xizmatlarga qilingan xarajatlar kiradi.

Tovarlarga qilingan xarajatlarga quyidagilar kiradi:

yakuniy mahsulotda mujassamlashgan xomashyo va materiallar;

odatiy texnologiyaga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan materiallar (masalan, sinovdan o'tkazish va sifatni nazorat qilishda ishlatilgan materiallar; asbob-uskunalar, binolar va boshqa asosiy fondlarni joriy saqlab turish, ishlatish va ta'mirlash uchun zarur bo'ladigan materiallar; asbob-uskunalarni ta'mirlash uchun butlovchi qismlar; asosiy fondlar tarkibiga kiritilmaydigan uskunalar, o'lchash asboblari, moslamalar, laboratoriya asbob-uskunalari; ish kiyimlari va poyabzallari, xodimlarning maxsus oziq-ovqatlari va arzon narxli buyumlar);

yarimfabrikatlar va korxonada yig'ilayotgan detallar;

barcha turdagi energiyani ishlab chiqarishga, isitishga, o'z ishlab chiqarishiga xizmat ko'rsatadigan transport ishlariga sarflangan yoqilg'i;

korxonaning texnologik va boshqa ishlab chiqarish hamda xo'jalik ehtiyojlariga sarflanadigan barcha turdagi energiya; korxonaning o'zi ishlab chiqaradigan elektr energiyasi va boshqa turdagi energiyalar hamda sotib olingan energiyani o'zgartirish va uni iste'mol qilish joyiga yetkazib berish bilan bog'liq xarajatlar;

qadoqlash materiallarining sof qiymati (ya'ni, qadoqlash materiallarini sotib olish qiymatidan ularni ishlatishdan olingan mablag'larni chegirilgan holda);

moddiy resurslarning yetishmasligi bilan bog'liq yo'qotishlar;

xodimlarning kerakli asboblari, ish kiyimlariga sarflangan xarajatlarni qoplab berish;

mehmonxonalar, restoranlar va kafelar tomonidan oziq-ovqat, tamaki mahsulotlari va ichimliklarni sotib olinishi;

korxonaning ma'lum bir bo'linmasi tomonidan boshqa bo'linmasiga ishlab chiqarishda foydalanish uchun yetkazib berilgan tovarlar (masalan, qishloq xo'jaligi korxonasining ma'lum bir bo'linmasi ishlab chiqargan

va boshqa bo‘linmasiga iste‘mol qilish uchun yetkazib berilgan urug‘lar va yem-xashaklar).

Xizmatlarga qilingan xarajatlarga quyidagilar kiradi:

boshqa tashkilotlar tomonidan bajarilgan ishlab chiqarish xususiyatiga ega ishlar va xizmatlar (xomashyoni qayta ishlash, ta‘mirlash va transport ishlari, xomashyo sifatini tekshirish ishlarini o‘tkazish va boshqalar);

aloqa xizmatlariga to‘lovlar;

o‘quv muassasalariga xodimlarning kasbiy tayyorgarligi bilan bog‘liq to‘lovlar;

sog‘liqni saqlash muassasalariga dispanserizatsiya, emlash va boshqa shu kabi xizmatlar uchun to‘lovlar;

binolar, inshootlar, mashina va uskunalar uchun ijara to‘lovlari;

chiqindilarni yig‘ishtirish va utilizatsiya qilish kabi kommunal xizmatlarga to‘lovlar;

yuridik xizmatlar uchun to‘lovlar;

reklama hamda nusxa ko‘chirish, chiptalarni buyurtma qilish kabi boshqa tadbirkorlik xizmatlari va professional birlashmalar xizmatlari uchun to‘lovlar;

tovarlarni litsenziyalash va sertifikatlash to‘lovlari;

yong‘in xavfsizligi va qo‘riqlash xizmatiga to‘lovlar;

abonentlik xizmati uchun to‘lovlar;

davriy nashrlarga obuna bo‘lish bilan bog‘liq to‘lovlar;

mutaxassislarni xizmat safariga yuborish bilan bog‘liq transport va mehmonxona xizmatlari, shuningdek, yo‘l puli xarajatlari;

moliyaviy xizmatlar uchun to‘lovlar.

16. Oraliq iste‘mol ishlab chiqarish jarayonida tovarlarni iste‘mol qilingan vaqtda amalda bo‘lgan sotib olish narxlarida baholanadi.

17. Oraliq iste‘mol tarkibiga quyidagilar kirmaydi:

tabiiy xomashyolardan foydalanish bilan bog‘liq xarajatlar (mineral xomashyo bazasini takror hosil qilishga, yerni rekultivatsiya qilishga ajratmalar, o‘sib turgan joyida sotiladigan daraxtlar uchun, suv xo‘jaligi tizimlaridan olinadigan suv uchun to‘lovlar), chunki ular budjetga to‘lanadigan to‘lovlarni ifodalaydi;

korxona tomonidan o‘z xodimlariga natura ko‘rinishidagi ish haqi sifatida bepul yoki pasaytirilgan narxlarda beriladigan tovarlar va xizmatlar, natura ko‘rinishidagi ijtimoiy nafaqalar, korxona bo‘linmalari tomonidan xodimlarga va ularning oila a‘zolariga ko‘rsatiladigan ijtimoiy-madaniy xizmatlar (korxona tasarrufidagi turar joylar, kasalxonalar, maktabgacha ta‘lim muassasalari, klublar va boshqalar) qiymati;

asosiy fondlarni kapital ta‘mirlash xarajatlari;

asosiy kapital iste‘moli;

asosiy fondlar va noishlab chiqarish aktivlariga egalik huquqlarini berish bilan bog‘liq xarajatlar (ular asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilishiga kiritiladi);

yerdan foydalanganlik uchun ijara to‘lovi (mulkdan olinadigan daromadlarga kiritiladi);

neft, tabiiy gaz va boshqa foydali qazilma konlarini izlash bilan bog'liq geologik qidiruv, burg'ulash ishlari va boshqalarga xarajatlar (asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishiga kiritiladi);

melioratsiya va yerlarni tozalash ishlari, o'rmonlar va bog'lar barpo etish bo'yicha tayyorgarlik ishlari va shu kabilarni o'z ichiga oluvchi yerlarni yaxshilash ishlariga kapital xarajatlar (asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishiga kiritiladi);

ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga xarajatlar (mazkur faoliyat egasiga iqtisodiy foyda keltirmasligi aniq bo'lgan holatlar bundan mustasno);

davlat tomonidan zaxirani to'ldirish uchun tovarlar sotib olinishi.

18. Asosiy narxlarda iqtisodiy faoliyat turlarining yalpi qo'shilgan qiymati asosiy narxlardagi ishlab chiqarish va sotish narxlaridagi oraliq iste'mol o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

$$GVA_i = O_i - IC_i, \quad (1)$$

bu yerda,

$GVA_i - i$ - iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha asosiy narxlarda qo'shilgan qiymat hajmi;

$O_i - i$ - iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha asosiy narxlarda tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish hajmi;

$IC_i - i$ - iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha sotib olish narxlarida oraliq iste'mol hajmi.

4-bob. YAHMni doimiy narxlarda baholash

19. YAHM va uning tarkibiy qismlarini doimiy narxlarda hisoblash ma'lum bir davr mobaynidagi hudud iqtisodiy rivojlanish darajasi ko'rsatkichlari bo'lgan fizik hajm indekslarini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi.

20. Doimiy narxlardagi YAHM turli usullar va ma'lumot manbalaridan foydalanib, doimiy narxlarda alohida hisoblangan iqtisodiy faoliyat turlarining yalpi qo'shilgan qiymatlari va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisidan iboratdir.

21. YAHM tarkibiy qismlarini doimiy narxlarda hisoblash ikki asosiy usuldan foydalangan holda amalga oshiriladi:

joriy narxlardagi hisobot davri ma'lumotlarini mos narxlar indeksi orqali deflyatsiya qilish;

$$O_{const.} = \frac{O_t}{I_p} * 100, \quad (2)$$

bu yerda,

$O_{const.}$ - iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha doimiy narxlarda ishlab chiqarish hajmi;

O_t - iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha t davr uchun joriy narxlarda ishlab chiqarish hajmi;

I_p - iqtisodiy faoliyat turiga mos keluvchi p narx indeksi.

Ushbu usulda quyidagi narx indekslaridan foydalaniladi:

- iste'mol narxlari indeksi;

- sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar narxlari indeksi;
- tashish va aloqa xizmatlari tariflari indeksi;
- dehqon bozorlaridagi narxlar indeksi;
- asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va qurilish ishlari bo'yicha narxlar indeksi;

- o'rtacha ish haqining o'zgarishi indeksi va boshqalar.

Joriy narxlardagi o'tgan yilning mos davri ma'lumotlarini fizik hajm indeksleri yoki ushbu iqtisodiy faoliyat turining rivojlanish sur'atlarini mantiqan to'g'ri ifodalovchi natural indikatorlar orqali ekstrapolyatsiya qilish.

$$O_{const.} = \frac{O_{t-1} \times I_q}{100}, \quad (3)$$

bu yerda,

$O_{const.}$ – iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha doimiy narxlarda ishlab chiqarish hajmi;

O_{t-1} – iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha $t-1$ davr asosiy narxlarida ishlab chiqarish hajmi;

I_q – iqtisodiy faoliyat turiga mos keluvchi q fizik hajm indeksi.

Ushbu usulda quyidagi indekslardan foydalaniladi:

- natura shaklidagi tovarlar ishlab chiqarish bo'yicha fizik hajm indeksleri;

- xizmatlar hajmi o'zgarishini ifodalovchi mos natural ko'rsatkichlarning fizik hajm indeksleri;

- yollanma ishchilar sonining o'zgarish indeksi va boshqalar.

22. Ayrim hollarda ko'rsatkichlarni doimiy narxlarda hisoblashning to'g'ridan-to'g'ri qayta baholash usuli ham qo'llaniladi, bu usul hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini o'tgan yilning mos davri narxlariga ko'paytirish orqali amalga oshiriladi.

$$Q_{t0} = \sum_{i=1}^n q_{i,t} \times p_{i,t0} \quad (4)$$

bu yerda,

Q_{t0} – joriy davrdagi tovarning $t0$ - bazis davri narxlaridagi qiymati;

$q_{i,t} - i$ - tovarning t - joriy davrdagi fizik hajmi;

$p_{i,t0} - i$ - tovarning $t0$ - bazis davridagi narxi.

Bu usul asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini baholash uchun ishlatiladi, chunki unda cheklangan sonli bir turdagi mahsulotlar ishlab chiqariladi.

23. YAIMning tarkibiy qismlari jamlangan qiymatlar bo'lganligi sababli, ularni baholash usullari yuqorida aytib o'tilgan usullar kombinatsiyasidan iborat bo'ladi.

5-bob. YAHMni baholash uchun axborot manbai

24. Ishlab chiqarishni baholash uchun axborot manbai bo'lib, har yili tasdiqlanadigan Statistika dasturida bajarilishi nazarda tutilgan, tarmoqlar va

tarkibiy statistikaning hududlar kesimidagi keng ko‘lamdagi axborot resurslari (iqtisodiy faoliyat turlarining qisqa muddatli kuzatuvlari, kichik korxonalar, mikrofirmalar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning tanlanma kuzatuvlari, uy xo‘jaliklari budjeti kuzatuvlari, korxonalar va tashkilotlarning tarkibiy kuzatuvlari, shuningdek, davlat budjetining ijrosi to‘g‘risida, bojxona va soliq organlarining ma‘muriy ma‘lumotlari, budjetdan tashqari jamg‘armalarning ma‘lumotlari, Markaziy bankning moliyaviy ko‘rsatkichlari va boshqalar) xizmat qiladi.

25. Oraliq iste‘molni yillik davriylikda hisoblash korxona va tashkilotlarning tarkibiy kuzatuvlari, davlat budjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobot ma‘lumotlari va ekspert baholashlar asosida amalga oshiriladi.

26. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha oraliq iste‘molni choraklik davriylikda hisoblash, aniqlik kiritilgan yillik hisob-kitoblar asosida, oraliq iste‘molning ishlab chiqarishdagi ulushidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

27. YAHMni tezkor choraklik baholashda qator ko‘rsatkichlar bo‘yicha bevosita ma‘lumotlarning mavjud emasligi sababli, YAHMni hisoblash bilvosita ko‘rsatkichlar va ekspert baholashlardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

28. Ayrim iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hududlar kesimida ma‘lumotlar mavjud bo‘lmagan holatlarda YAHMni hisoblash respublika YAIMini hududlarning iqtisodiy faoliyat turlarini tavsiflovchi alohida ko‘rsatkichlarning tarkibiga mos ravishda hududlar bo‘yicha taqsimlash orqali amalga oshiriladi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

29. YAHMni choraklik va yillik baholashlar natijalari hududiy statistika boshqarmalariga yetkaziladi.

30. YAHM hudud rivojlanishini umumlashtiruvchi ko‘rsatkich hisoblanadi va hududning ishlab chiqarish natijalari, iqtisodiy rivojlanish darajasi, iqtisodiy o‘sish sur‘atlari, mehnat unumdorligi tahlili va boshqa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni tavsiflash uchun foydalaniladi. Milliy iqtisodiyotda hududlarning o‘rni va ahamiyatini tahlil qilishda mamlakat YAIMidagi hududlarning YAHM ulushlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlaridan foydalaniladi.

31. Aholi jon boshiga YAHM ko‘rsatkichi hududda aholi soni o‘zgarishiga nisbatan ishlab chiqariladigan tovarlar va xizmatlarga statistik baho beradi hamda uning farovonlik darajasini baholashda foydalaniladi.

32. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari “Statistik ma‘lumotlarni taqdim etishning universal modeli” (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo‘yicha namunaviy uslubiy qo‘llanma”ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni Oz‘RQ- 707 11- avg. 2021- y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 23- noyabrdagi 45- sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish usulida hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom”.
3. Milliy hisoblar tizimi – 2008// Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa komissiyasi, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon banki, 2009- y.
4. Оценка услуг, занимаемых владельцами жилищ: метод пользовательских расходов // ЕЭК ООН, Евростат, ОЭСР, 2008 г.
5. Общие принципы расчета валового регионального продукта // Статкомитет СНГ, 2001 г.
6. Обзор практики расчетов валового регионального продукта в странах СНГ // Статкомитет СНГ, 2004 г.
7. Совершенствование методологии расчетов валового регионального продукта // Статкомитет СНГ, 2005 г.
8. Официальная статистическая методология переоценки валового внутреннего продукта Российской Федерации в постоянные цены, утвержденная приказом Росстата от 8 ноября 2021 г. №774.

“Yalpi hududiy mahsulotni
hisoblash bo‘yicha Uslubiy nizom”ga
1-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki (hududiy) mahsulotini
shakllantirish sxemasi**
(Shartli ma’lumotlar)

	YAIM (YAHM), mln.so‘m	YAIM (YAHM) o‘shish sur‘ati, % da	Aholi jon boshiga YAIM (YAHM), ming so‘m	Aholi jon boshiga YAIM (YAHM) o‘shish sur‘ati, % da
O‘zbekiston Respublikasi*	734 909 658,1	107,4	17 591,5	105,3
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	25 916 691,7	107,7	11 450,0	106,3
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	43 677 270,7	104,9	12 139,0	102,8
Buxoro	38 650 660,2	106,6	16 323,1	105,1
Jizzax	23 436 450,5	107,8	13 303,1	105,5
Qashqadaryo	42 846 501,2	106,8	10 763,7	104,8
Navoiy	59 570 194,1	107,3	50 334,0	105,4
Namangan	34 446 901,5	109,8	9 889,6	107,5
Samarqand	53 312 566,1	108,5	11 089,2	106,4
Surxondaryo	29 872 189,7	108,0	9 333,1	105,8
Sirdaryo	15 212 762,2	109,1	15 145,6	107,1
Toshkent	83 214 786,4	110,5	22 116,6	111,8
Farg‘ona	48 158 583,7	108,2	9 920,8	106,2
Xorazm	26 644 399,1	108,2	11 419,7	106,5
Toshkent sh.	123 836 597,2	116,1	36 755,5	108,7

**) hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan ma’lumotlarni qo‘shgan holda*

“Yalpi hududiy mahsulotni
hisoblash bo‘yicha Uslubiy nizom”ga
2-ILOVA

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yillik YAHM tarkibi sxemasi
(Shartli ma’lumotlar)

(joriy narxlarda, mln.so‘m)

IFUT-2 kodlari	Iqtisodiy faoliyat turlari	Resurslar	Ishlatilish	
		ishlab chiqarish	oralik iste’mol	yalpi qo‘shilgan qiymat
		1	2	3 = 1 – 2
A	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	317 027 586,3	134 227 543,8	182 800 042,5
B,C,D,E	Sanoat	465 956 313,6	275 669 676,7	190 286 636,9
F	Qurilish	107 492 677,4	61 676 918,4	45 815 759,0
G	Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta’minlash	72 483 235,7	29 165 024,1	43 318 211,6
H	Tashish va saqlash	67 238 578,5	30 470 205,0	36 768 373,5
I	Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	8 453 308,9	4 195 352,6	4 257 956,3
J	Axborot va aloqa	18 333 464,7	6 336 682,6	11 996 782,1
L	Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar	46 269 136,1	6 424 583,4	39 844 552,7
M	Professional, ilmiy va texnik faoliyat	12 848 507,4	4 737 556,3	8 110 951,1
N	Boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish	13 470 071,3	4 854 552,6	8 615 518,7
P	Ta’lim	50 745 775,6	9 219 493,7	41 526 281,9
Q	Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	27 449 841,5	7 701 435,6	19 748 405,9
R	San’at, ko‘ngil ochish va dam olish	4 087 651,8	1 698 145,4	2 389 506,4
S	Boshqa turdagi xizmatlar ko‘rsatish	14 029 942,6	6 833 082,2	7 196 860,4
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati*	1 225 886 091,4	583 210 252,4	642 675 839,0
	Mahsulotlarga sof soliqlar	51 992 805,8	X	51 992 805,8
	Joriy narxlarda yalpi hududiy mahsulot*	1 277 878 897,2	637 253 246,1	694 668 644,8

*) hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan ma’lumotlarni qo‘shgan holda

“Yalpi hududiy mahsulotni
hisoblash bo‘yicha Uslubiy nizom”ga
3-ILOVA

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha choraklik YAHM tarkibi sxemasi
(Shartli ma’lumotlar)

(joriy narxlarda, mln.so‘m)

IFUT-2 kodlari	Iqtisodiy faoliyat turlari	Resurslar	Ishlatilish	
		ishlab chiqarish	oralik iste’mol	yalpi qo‘shilgan qiymat
		1	2	3 = 1 – 2
A	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	364 522 773,4	156 069 892,1	208 452 881,3
B,C,D,E	Sanoat	563 107 206,9	342 402 896,9	220 704 310,0
F	Qurilish	130 767 070,1	75 244 340,4	55 522 729,7
G	Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta’minlash	88 847 862,2	36 555 915,2	52 291 947,0
H	Tashish va saqlash	81 006 577,4	38 173 411,3	42 833 166,1
I	Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	11 414 715,3	5 904 995,9	5 509 719,4
J	Axborot va aloqa	23 512 149,0	8 568 879,8	14 943 269,2
L,M,N,P, Q,R,S	Iqtisodiy faoliyatning boshqa turlari	322 221 807,8	94 425 671,8	227 796 136,0
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati*	1 585 400 162,1	757 346 003,4	828 054 158,7
	Mahsulotlarga sof soliqlar	60 287 517,5	X	60 287 517,5
	Joriy narxlarda yalpi hududiy mahsulot*	1 645 687 679,6	757 346 003,4	888 341 676,2

*) hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan ma’lumotlarni qo‘shgan holda